

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

SOG'LOM, ILMLI VA FIDOYI FARZANDLARI BO'LGAN XALQ, ALBATTA, O'ZINING BUYUK KELAJAGINI BARPO ETADI



Sh. MAXMADIYEV olgan surat

Farg'ona shahridagi 40-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'quvchilari «Tong yulduzi» gazetasini sevib o'qishadi. Mazkur ta'lim muassasasi rahbari, O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi Anvarjon aka Aliyev 9-sinf o'quvchilari bilan birgalikda gazetaning yangi soni bilan tanishishmoqda.

QO'NG'TROQ

SAMARQANDLIKLAR PESHQADAM

Gazetamiz nashrga tayyorlanayotgan pallada Samarqand viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi xodimi Xurshid Hojiqulov bilan telefon orqali bog'landik. «Tong yulduzi» gazetasiga obuna ishlari qanday ketayotgani bilan qiziqdik:

– «Tong yulduzi» o'quvchilarimizning eng sevimli nashrlaridan biri sanaladi. O'tgan yili ham respublika bolalar va o'smirlarining yagona gazetasiga eng birinchilardan bo'lib obuna bo'lishgan edi. Bu yil ham viloyatimiz o'quvchilari birinchilikni aslo qo'ldan berishmaydi.

Ha, joylarda Xurshid aka kabi bolalar ma'naviyati uchun qayg'uradigan ustozlar bor ekan, ko'nglimiz xotirjam. Zero, ezgu maqsadlarga yuksak ma'naviyat, uzluksiz ma'naviy tarbiya orqali erishiladi.

DIQQAT! DIQQAT!

«Tong yulduzi» gazetasiga obuna mavsumi boshlandi

Qadri o'quvchilar!

Sevimli nashringiz «Tong yulduzi» gazetasiga kelasi yil uchun obuna bo'lishga shoshiling. Gazetamizda 2015-yilda yanada qiziqarli, rang-barang, mazmunli, voqealarga boy maqola, xabar, she'r, ertak va hikoyalar chop etiladi.

U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

Nashr ko'rsatkichi – 198

MILLIY TEATRGA 100 YIL!

O'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish, ularni buyuk ajdodlarimizning munosib davomchilari etib tarbiyalashda teatr san'atining o'rni beqiyos. Ayni kunlarda nishonlanayotgan O'zbek Milliy akademik drama teatrining bir asrlk to'yi tantanalari san'atsevar xalqimizga xursandchilik kayfiyatini ulashmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2014-yil 22-yanvarda qabul qilingan «O'zbek Milliy akademik drama teatrining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi Qarori nafaqat Milliy teatr, balki butun o'zbek teatr san'atida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Mazkur san'at dargohida yubiley arafasida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bir asrlk tarixga ega bu maskan o'zining mustahkam ijodiy maktabi an'analari, ustoz va shogirdlikning namunali jihatlari bilan ham barcha teatrlarga o'rnak. San'atimiz fidoyilari To'ti Yusupova, Rixsi Ibrohimova, Yayra

Abdullayeva ayni vaqtda ham yosh ijrochilarga sahna sirlarini o'rgatib kelishmoqda.


Yayra Abdullayeva, O'zbekiston xalq artisti: – Men o'z taqdirimdan roziman. 64 yildan beri ushbu muqaddas sahnada faoliyat yuritib kelyapman. Teatrimizning 100

yillik to'yini qarshi olish menga baxtivorlik onlarini taqdim etmoqda. Bu shunday ta'riflab bo'lmaz zo'r quvonchki, u meni yanada yoshartirdi. Kelgusida ham yangi-yangi rollar orqali san'atsevar muxlislarimizni xursand qilish istagidaman.

To'ti Yusupova, O'zbekiston xalq artisti: – Ushbu tantana nafaqat biz, Milliy teatr ijodkorlari, balki butun O'zbekiston san'atkorlari hayotidagi eng quvonchli kun deb bilaman. Teatrimiz tanib bo'lmaz darajada yangi qiyofa kasb etdi, ta'bir joiz bo'lsa, xuddi kecha kelgan yangi kelinchak misol chiroy ochdi.

Biz ijodkorlar oldimizga qo'yilgan muhim vazifalarga munosib tarzda javob qaytarishimiz, xalqimizga manzur bo'ladigan to'laqonli spektakllar bilan «labbay», deb javob berishimiz kerak.

Mahmudjon AZIMOV
tayyorladi



«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» RESPUBLIKA TANLOVI YAKUNLANDI

«Kitob o'qishni yaxshi ko'raman. O'zimning shaxsiy kutubxonam bor». Bu jummalarni deyarli barcha kitobxonlarning maktublaridan o'qib, xursand bo'lamiz. Zero, kitob insonning ma'naviyatini boyituvchi, uni yaxshilikka, ezgulikka yetaklovchi bilim omboridir.

Aziz o'quvchilar! Xabaringiz bor, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi «Kamalak» respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» an'anaviy respublika tanlovini e'lon qilgan edik.

Tahririyatimizga siz aziz kitobxonalardan juda ko'plab maktublar keldi. Bizga maktub yo'llagan barcha kitobsevarlarni tabriklagan holda, ularning har biriga maxsus sovg'amizni hozirladik.

Biroq tanlovda, albatta, g'oliblarning aniqlanishi shart. Shu bois, biz ham kitobxonlar orasidan eng ko'p kitob o'qigan uch nafar o'quvchini g'olib deb topdik. Marhamat, ular bilan tanishing:

1-o'rin: Muzayanabegim IBROHIMJONOVA, Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 1-aniq va ijtimoiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 4-«B» sinf o'quvchisi.

2-o'rin: Gulnora MIRZAQULOVA, Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi.

3-o'rin: Umidaxon KARIMOVA, Sergeli sanoat kasb-hunar kolleji o'quvchisi.

G'OLIBLARNI QUTLAYMIZ!

G'IJDUVONLIK O'QITUVCHILAR VILOYATDA BIRINCHI

Istiqlol yillarida respublikamiz ta'lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirildi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlardan keng foydalanish bugungi kun asosiy talablaridan biriga aylanib bormoqda. Bu esa soha xodimlari zimmasiga fan-texnika sohasidagi yutuqlar, yangiliklarni tatbiq etgan holda darsni ilmiy asosda tashkil qilish vazifasini yuklaydi.

Respublikamiz bo'ylab ta'lim maskanlarida o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar tahlili bilan yaqindan tanishib borar ekanmiz, navbatdagi safarni Buxoro viloyati, G'ijduvon tumaniga uyushtirdik.

G'ijduvon tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Zamira TOLIBOVA bizga quyidagilarni so'zlab berdi:



Bugungi kunda tumanimizda 126 ta ta'lim muassasalari faoliyat yuritib, ulardan 66 tasi umumta'lim, 2 ta musiqa, 53 ta maktabgacha va 5 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridir.

Hozirda tumanning jami umumta'lim maktablarida «Dars muqaddas», «O'rgan-o'rgat» va «Murakkab fan o'rganamiz» tadbirlari ta'lim jarayoniga keng tatbiq etilib, har bir pedagog metodik talablarni bajarish, ta'lim mazmuniga ijodiy yondashish bugungi kun o'qituvchisining zimmasidagi muhim vazifalardan biri ekanligini anglagan holda faoliyat yuritib kelmoqda. Birgina bahor oyining o'zida 4-, 5-, 43-, 48-umumta'lim maktablarida «Zamonaviy ta'limda innovatsion usullardan foydalanishning optimal yo'llari», «Maktabda uzluksiz metodik xizmatni takomillashtirish, ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish», «Chet tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari» hamda «Bilim va sinovlar vositasida fanlar sirlari yechilib boraveradi» mavzularida o'quv, amaliy-metodik seminarlar tashkilashtirildi.

79 nafar o'quvchilarimiz «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida ishtirok etib, shundan 36 nafari faxrl o'rinlarni egallashgan bo'lishsa, 13 nafari birinchi o'rin sohiblaridir. Birinchilikni qo'lga kiritgan olti nafar o'quvchi aynan chet tillari bo'yicha ekanligi tumanda xorijiy

tillarni o'rgatish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilganligidan darak beradi.

Bugungi kunda maktabgacha talim muassasalari faoliyati namunali darajada tashkillashtirilgan bo'lib, 32 tasi zamonaviy hamda 21 ta moslashtirilgan binolarda to'rt mingdan ziyod kichikintoylar «Bolajon» tayanch dasturi asosida talim-tarbiya olmoqda. Har yili tuman MTM o'rtasida sport musobaqalarini o'tkazish an'anaga aylangan. 16-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari Buxoro «Yoshlik» sport majmuasida o'tkazilgan «Shirintoy-kichikintoy» sport musobaqasining viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritishdi.

Tumanda 4 ta BO'SM bo'lib, uch mingga yaqin o'quvchilar sportning barcha turlari bo'yicha saboq olishmoqda.

Har yili o'tkazilayotgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida o'qituvchilarimiz faol ishtirok etishdi. 63-IDUMI iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi Jamshid Narziyev tanlovning respublika bosqichida 1-o'rin sohibi bo'ldi. 62-IDUMIning fransuz tili fani o'qituvchisi Jo'rabek Toshev hamda 63-IDUMI davlat va huquq asoslari fani o'qituvchisi Farrux Shamsiyev 4-o'ringa loyiq deb topildi.

Shuningdek, 63-IDUMI biologiya fani o'qituvchisi Mashhura Mirzayeva, 8-IDUMIning rasm-chizmachilik fani o'qituvchisi Furqat Azamatov, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Nargiza Ibragimova, 17-umumta'lim maktabi musiqa madaniyati fani o'qituvchisi Gulmira Qutliyeva, geografiya fani o'qituvchisi Gulrux Muiddinova hamda 31-umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Lola Nasrullayeva tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etishdi. Umumjamoa hisobida tuman o'qituvchilari viloyatda 1-o'rinni egalladi.

Nurbek QIDIRALIYEV yozib oldi

FARZANDLIK BURCHIMIZ

Dunyoda ota-onadan ulug' inson yo'q. Ular oldida hamisha qarzdormiz.

Biz – farzandlar ota-onamizning hurmatini joyiga qo'yishimiz kerak. Chaqirganlarida labbay, deb, ish buyursalar qo'limizni ko'ksimizga qo'yib xo'p bo'ladi, deya o'z vaqtda bajarsak, ko'ngillari tog'dek ko'tariladi. O'qituvchilarimiz ota-onalar majlislarida fanlarni a'lo o'zlashtirishimiz, namunali xulqimiz haqida gapirishsa, ko'ngillari faxr-iftixor tuyg'usiga to'ladi.

Shunday ekan, har birimiz farzandlik burchimizni bilaylik. Ota-onamiz orzu qilgandek bilimli, odobli farzandlar bo'lib, kelajakda el-yurt koriga yaraydigan kasb egalari bo'laylik.

Barchinoy IKROMOVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi

18-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi



Kitob – yo'limizni yorituvchi mash'ala, qadrdon do'st, ajoyib maslahatgo'y va hamsuhbatdir.


KITOB – BUYUK MO'JIZA

Bir-biridan qiziqarli, sermazmun va yaxshilikka yetaklovchi kitoblarni barchaga birdek yoqadi. Kitobga qiziquvchilar hech qaysi yozuvchi va shoirlarning asarlarini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Doimo kitobga oshno bo'lish bilim salohiyatimizni kengaytirib, nutqimizni o'stiradi, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashga o'rgatadi. Natijada, hayotimiz nurga to'lib boraveradi. Shunday ekan, barcha imkoniyatlardan oqilona foydalanib, o'qib-izlanib, ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetish uchun siddiqdildan harakat qilishimiz lozim. Axir kun sayin gullab-yashnayotgan hur Vatanda yashash, biz – yoshlarga bildirilgan ishonchni oqlash baxt emasmi?!

Hulkar XIDIROVA,

Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi

28-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi



SEVIMLI NASHRIM

Tengdoshlarim haqida xabarlar berib boruvchi, sevimli nashrim bo'lgan «Tong yulduzi»ning har bir sonini sevib o'qib boraman.

Maktabimiz pochta-chinisini har ko'rganda, menga gazeta olib keldingizmi, deb so'rayverib bezor qilib yuborganman. U kishi biror sonini qoldirmay olib kelib beradi, men esa pochta-chiniga rahmat aytib, gazetadagi yangiliklarni o'qishga shoshilaman.



Aziz tengdoshlar, sizlar-chi, fikrimga qo'shilasizmi? Ha, deysizmi, unda 2015-yil uchun ham «Tong yulduzi»ga obuna bo'ling.

Sitora SA'DULLAYEVA,

Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 24-umumta'lim

maktabining 7-sinf o'quvchisi



HAMISHA TA'ZIMDAMIZ

Bizning maktabimizda 575 nafar o'quvchilarga 52 nafar malakali va tajribali o'qituvchilar saboq berishadi.

Sinf rahbarimiz Orif Qurdoshev boshchiligidagi maktabimizda turli tadbirlar, bellashuvlar uyushtiramiz. Ana shunday tadbirlardan biri «O'qituvchi va murabbiylar kuni»ga bag'ishlandi. Unda ustozlar ulug'ligi, ilm-ma'rifat fidoyisi ekanligi yana bir bor ta'kidlandi. Ta'lim maskanimizdagi Baxtiyor Tog'ayev, Shohida To'ylanova, Toshniyor Qorayeva, Said Abdurahmonov, Xolmuhammad Toshpo'latov, Feruza Umarova, Rahima Shodmonova, Bahora Husanova, Dilfuza Qarshiboyeva singari jonkuyar ustozlar mehnati yana bir bor e'tirof etildi. Ular o'z fanlarini juda qiziqarli o'tishadiki, hatto qo'ng'iroq chalinganini ham sezmay qolamiz. Maktabimizda fidoyi o'qituvchilar borligidan faxrlanamiz va ularga bir umr ta'zim qilamiz.

Shahzod MURODOV,

Jizzax tumanidagi 32-umumta'lim

maktabining 9-sinf o'quvchisi



DIQQAT, TASHABBUS!

ELEKTR QUVVATINI TEJASH – BURCHIMIZ!

Hozirgi kunda hayotimizni elektr energiyasiz tasavvur qilish qiyin. Xonadonimizni charog'on etuvchi chiroqlar, muzlatgich, sovitgich, chang yutgich va dazmol kabi eng zarur vositalarni ishlatadigan ham shu manba. Eng zamonaviy kompyuter, qo'l telefonlari, radio, televizor va boshqa texnika uskunalari ham elektr quvvatisiz ishlamaydi.

Bu bebaho quvvat manbasi cheksiz chegarasiz emas. Uni iste'molchilarga yetkazish uchun qanchadan qancha yonilg'i – gaz, mazut, ko'mir ketadi. Mavjud tabiiy gidroelektr stansiyalarida esa katta mablag'lar hisobiga ulkan suv omborlari tashkil qilinib, ulardagi obihayotdan oqilona foydalanadilar.

Ana shu elektr quvvatlarini tejab-tergab ishlataymizmi? Behuda yonib qolayotgan elektr chiroqlari, televizor va boshqa maishiy texnika vositalarini kerak bo'lmagan paytlarda elektr energiyasidan uzib qo'yaymizmi? Beparvoligimiz oqibatida qanchadan qancha elektr quvvatining isrof bo'lishiga yo'l qo'ymaymizmi?

Elektr quvvatini tejash maqsadida Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 97-maktabning 8-«V» sinf o'quvchilari ibratli tashabbus boshladilar. Ular maktabdoshlariga murojaat qilib: «Har bir yoritgich,

texnika vositasi o'quvchi nazoratida» shiori ostida shu yilning 1-oktabridan boshlab o'z mahallasi, yashayotgan uy-joy binosi yo'laklarida, xonadonlarida, hatto maktab va sinf xonalarida ham elektr quvvatlarini tejab-tergashga alohida e'tibor qaratib, barcha elektrdan quvvat oladigan manbalarni o'z

nazoratlariga olishga qaror qildilar.

Buning uchun o'quvchilar sinf rahbari Alijon Salimov boshchiligidagi kuniga amalga oshirayotgan harakatlarini hisob-kitob qilib, maxsus daftarchaga yozib boradilar.

Tashabbuskorlar mahallada elektr energiyasidan noto'g'ri foydalanayotganlar hamda behuda yonib qolgan yoritgichlar haqida mahalla oqsoqoliga xabar berganlarini ham qayd qilib boradilar.

Maktabning 7-«V» sinf o'quvchilari boshlagan bu tashabbusga boshqa sinf o'quvchilari ham qo'shildilar.

Qadrli o'quvchilar! Elektr energiyasi – bu xalqimizning tengsiz boyligi. Uni isrof qilish, behuda sarflash jinoyat bilan teng.

Siz ham toshkentlik tengdoshlaringiz boshlagan tashabbusga qo'shiling. Ogoh bo'ling, elektr bu o'yinchoq emas. O'zboshimchalik qilmasdan, ustozingiz boshchiligidagi ezu ishlarni davom ettiring. Bu harakat bo'yicha olib borayotgan ishlar yuzasidan gazeta tahririyatiga xabar qilib boring.

Feruza RAZZOQOVA



ORZULI OLAM

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 9-sinfida tahsil olayotgan Durdona Sharafiddinova bolaligidanoq adabiyotga o'zgacha mehr qo'ydi.

Durdona bu fan qatorida algebra, ingliz tili, botanika, kimyo singari fanlarni ham qiziqish bilan o'rganadi. Joriy yilda uning «Orzuli olam» nomli ilk she'riy kitobchasi nashrdan chiqdi.

– Ayni damda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi qoshida tashkil etilgan to'garakka qatnayapman. Bu yerda she'r yozishning o'ziga xos sirlarini ustozlardan qunt bilan o'rganmoqdaman. Joriy yilda «Yurt kelajagi – 2014» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida qatnashdim. Menga ustozlik qilayotgan shoira Umida Abduazimova hamda ijodkor Rustam Mirvohiddan minnatdorman, – deydi Durdona.

Uning orzulari bisyor. Biz ham orzuli olamda unga omad tilaymiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



Ustozlarni har qancha qadrlasak oz. Ular sha'niga har kuni yaxshi so'zlar aytsek-da, kamlik qilaveradi. Ayni kunlarda ta'lim muassasalarida ustozlarga bag'ishlangan ko'plab tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

USTOZLARNI QADRLAB



Tadbirda tashrif buyurgan faxriy ustozlar bolajonlarga o'quvchilik yillari, maktabda kechgan qiziqarli voqealar haqida gapirib berdilar. «Marvarid» guruhi ijrosidagi «Namanganning olmasi», «Dasturxon» qo'shiqlari hamda 5-sinf o'quvchilari ijrosidagi «Ustozlar» qo'shig'i davraga yanada fayz kiritdi.

Tadbirni uyushtirishda maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari Shahnoza Mullajonova hamda Maktuba Zokirovaning hissasi katta bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV

Ona tabiatimiz mo'jizalari

Jondan aziz ona yurtimizning tabiati bebaho va go'zallikka boydir. O'lkamizning qadimiy g'orlari, purviqor tog'lari haqida ko'p o'qigansiz, eshitgansiz. Lekin yurtimizdagi sharsharalar haqida-chi, eshitganmisiz?

Qadimiy Shahrisabzda «Suv tushar» sharsharasi bor. Biz yaqinda ana shu maskanga sayohat uyushtirdik.

Shahrisabz tumanining janubi-sharqida joylashgan «Suv tushar» qishlog'i kishini betakror tabiati, go'zal olmozorlari-yu shifobaxsh tog' giyohlari, har qadamda qaynab turgan shishadek tiniq buloqlari bilan o'ziga maftun etadi. Ona tabiat in'om etgan go'zal manzara, ajoyib go'sha sizni beixtiyor o'ziga mahliyo qiladi-qo'yadi.

Yaqin atrofdagi boqqa tashrif buyurganimizda bo'yi uncha baland bo'lmagan olma daraxtlarining shoxlari

mevasi ko'pligidan yerga egilib turganini ko'rdik. Bizga olmozorning egasi, shu qishloqlik Anvar Ahmedov mezbonlik qildi. Hozirda «Hisorak» davlat qo'riqxonasida ishlayotgan Anvar aka bu yerning iqlimi, hayvonot va nabotot dunyosi haqida qiziq ma'lumotlarni so'zlab berdi.

Bog'da bir muddat dam olgach, sharshara tomon yo'l oldik. Yon-atrofdagi tinch-osoyishtalikni faqat qushchalarning sho'x chug'urchug'uri buzadi. Tabiatga mahliyo bo'lgancha oldinga odimlaymiz. Uch tomoni purviqor tog'lar bilan o'ralgan sharsharaga yetib kelganimizda, kun peshindan oqqan edi. Sharsharaning gulduragan

SHARSHARA MANZARALARI

ovozi uzoq-uzoqlarga taralmoqda. Yetmish besh metr balandlikdan oqib tushayotgan suv quyosh nurida kamalakdek jilvanib, ajoyib manzara hosil qiladi. Ko'm-ko'k zilol suv toshlarga urilganicha uzoqlarga oshiqadi. El orasida «Sharrak ota» deb ham ataladigan sharshara Hisor tog'ining chashma va qorlaridan hosil bo'lar ekan. Sharsharaning qachon paydo bo'lgani haqida aniq ma'lumot yo'q, ammo xalq orasida u bilan bog'liq turli qiziqarli rivoyatlar yurar ekan.

Sharsharaning suvi Miraki, Beshbek, Hisorak kabi qishloqlar aholisini obihayotga qondirib, «Hisorak» suv omboriga quyiladi.

Bu yerdan suv ombori ham jimirlab ko'zga tashlanadi.

Sharshara joylashgan makon haqiqatan ham o'ziga xos ekan. O'ttiz kilometr pastlikdagi qishloqlarda quyosh yon-atrofini ayamay qizdirayotgan bo'lsa-da, bu yerda salqin shabada esib turibdi. Hatto sharsharaning muzdek suvi etni junjiktiradi. Ayniqsa, yon-atrofini to'ldirgan kiyik o'ti, chayir, boldirg'on, ming tomir, tuyasingir, sigir quyruq kabi tog' giyohlarining ifori juda yoqimli. Har xil shakldagi ulkan toshlar o'ziga xos manzara kasb etgan. Huv anavi tog'ning tepasida bir juft burgut qanotlarini keng yoyganicha suzib yuribdi. Qushchalarning shoxdan-shoxga sakraganicha chug'urlashib o'ynashlari kishiga zavq bag'ishlaydi.

Yolg'izoyoq yo'ldan yana ortga qaytdik. Suv to'lib oqayotgan ariqcha bo'ylab quyuc butazor, daraxtzorlar orasidan bir chaqirimcha yayov yurib, tekis yo'lga chiqdik.

Ajoyib, go'zal mo'jizalardan biri – «Suv tushar» sharsharasining salobati-yu, yana biz bilgan-bilmagan sir-sinoatlarga boyligining guvohi bo'lgach, ona yurtimiz tabiatining qanchalik bebaho, ajib va betakror ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Yusufjon HAMDAMOV, jurnalist

Word Game

(So'z o'yini)

Lesson 6

One day in school...

(Maktabda bir kun...)

A word game grid with a central circle containing the letter 'S'. Lines radiate from the 'S' to various illustrations: a spider on a web, a swimmer in a pool, a school building, and a cake. Below the grid are several empty boxes for writing words.

In Chilonzor district in 168 th of school there are many talented and clever pupils because they have circles of every subject after classes.

– I like reading books in my free time especially in English and in future I want to be an interpreter, – said A'zam TUR-G'UNBOYEV. Another pupil of this school

said that he is very fond of sport, history and learning languages because sport is for his health and learning English to know and understand the world. In this, our kind and clever teacher Saushkina Galina Anatolyevna helps us very much, – said Otabek HAYDAROV.



Find twelve school subjects from this table (Ushbu jadvaldan 12 ta o'quv fani nomini toping)

m	o	t	h	e	r	t	o	n	g	u	e
p	a	r	t	r	p	h	y	s	i	c	s
c	z	t	q	b	o	t	a	n	y	x	c
o	z	c	h	r	u	s	s	i	a	n	h
m	l	i	t	e	r	a	t	u	r	e	e
p	t	h	j	n	m	k	l	o	p	x	m
u	g	e	o	g	r	a	p	h	y	t	i
t	x	z	v	l	n	m	t	k	y	o	s
e	e	r	s	i	d	f	g	i	g	h	t
r	a	h	i	s	t	o	r	y	c	y	r
s	s	f	h	h	g	y	j	k	e	s	y

FIND THE VERBS

(Fe'llarni toping)

1. Salim go to school every day. **Go**

2. He likes her toys.

3. My mother bought me a new dress yesterday.

4. Anvar runs every morning.

5. My grandmother always says to respect everybody.

6. Shohida writes short stories for children.

7. Usually I watch football with my father.

8. Do you know how to ride a bicycle?

9. Look! The bird is flying.

10. I want to be a pilot.



Gulruh SOLIYEVA

Word scramble

(So'zlarni yasang)

1. IBG - **BIG**
2. HTO -
3. EWN -
4. LDO -
5. SWIO -
6. MLLAS -
7. DKAR -
8. DLCO -
9. GLITH -
10. SAEF -

Riddles

(Topishmoqlar)

I smell nice and I'm beautiful. I come in many different colors. You can pick me and don't forget to water me.



I am hot. I live in the sky. I am bright. Don't look straight at me. I disappear in the night.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

My birthday

(Mening tug'ilgan kunim)

Today is my birthday. Birthday is a very very wonderful. I like to celebrate it. I spend time with my parents, friends and relatives. I was born on the 20th of September.

In the morning my parents give me presents. My father, mother, elder sister, brother and two little sisters come to my room to congratulate me and they say «Happy Birthday». We celebrate my birthday at home. Girls clean the rooms and house, the day before birthday. My father goes shopping and my mother cook a cake. I like to get flowers and presents. Elder sister brings «Birthday cake with candles». I think that my birthday is one of the best day in a year. I'll be very happy that day.



Gulnora TOSHQULOVA,

Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi

7-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



TEMURIYLAR AVLODIMIZ, O'T YURAKLI

Temur bobo har so'zida bor adolat,
Undan meros bizga cheksiz kuch-u qudrat.
Narshaxiyning xatlarida bitgan hikmat,
Temuriylar avlodimiz, o't yurakli.

Navoiyning navosidan tomgan sehr,
Ibn Sino ko'zlarida yongan mehr.
Forobiyni tanimaydi kimlar axir,
Donishmandlar avlodimiz, o't yurakli.

Cho'qqilarni zabt etmoqlik ezgu ahdi,
Pisand emas mashaqqatning baland-pasti.
Yurtboshisi qo'llar, shundan baland dasti,
Ozod yurtning farzandimiz, o't yurakli.

Barkamolimiz, orzulari ko'kni quchgan,
Ajodlardan buyuk meros dilga ko'chgan.
Kelajakka umid qanotida uchgan,
Biz kelajak avlodimiz, o't yurakli!
Yurtimizga, xalqimizga eng kerakli!

Ozoda RAHMONOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
62-ixtisoslashtirilgan davlat
umumta'lim maktab-internatining
fransuz tili o'qituvchisi

QISHLOG'IM

Baland qirlar bag'rida,
Turar mening qishlog'im.
Dalalari poyonsiz,
Bisiyordir bog'-u rog'im.

To'polon daryosidan,
Bahra olib yuramiz.
Tuprog'imiz e'zozlab,
Yangi uylar quramiz.

Bahor erta keladi,
Bilsangiz biz tomonga.
Qirlar yashnab ketadi,
Yuguramiz har yonga.

Tabiatni chin dildan,
Sevar bizning bolalar.
Har bahorda lovullab,
Ochiladi lolalar.

Tamanno BOBOQULOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo
tumanidagi 68-umumta'lim
maktabining 7-sinf o'quvchisi



ONA

Ona mehri quyoshdir
Tafti dilni yoritar.
Bo'lib tun-kun parvona
Kulfatlarni aritar.

U shundayin aziz zot
Poyida jannat izi.
Farzandim deb yashaydi,
To'tiyodir har so'zi.

Ranjitmaylik onamiz
Shodligimiz tilaydi.
Duo qilib erta-kech,
Boshimizni silaydi.

Shodiyona XUSHVAQTOVA,
poytaxtimizning Shayxontohur
tumanidagi 262-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi



O'ZBEKISTONIM

O'zbekiston Vatanim,
Sensan dur-u gavharim.
Shu Vatanda ulg'aydim,
Desam, yayraydi tanim.

Bilimimiz oshirib,
Yetuk inson bo'lamiz.
Yurtimizga, albatta,
Sodiq o'g'lon bo'lamiz.

Shomaqsud RAMAZONOV,
Toshkent shahri,
Sergeli tumanidagi
300-IDUMning
5-sinf o'quvchisi

XORAZM

Bog'lari jannat misol,
Toza, musaffo havo.
Aqlingni aylagay lol,
Dilingga bo'lar davo.

Xivani dong'i ketgan,
Maqbaralar naqshinkor.
Qancha ulug'lar o'tgan,
Tuprogi zo'r hosildor.

Insonlari samimiy
Dilda yurtning mehri bor.
Jaloliddindek mag'rur,
Farzandlar yashar bisyor.

Muxlisa SHARIFBOYEVA,
Toshkent viloyati,
Zangiota tumanidagi
42-umumta'lim maktabining
9-sinf o'quvchisi



YOSH HIMOYACHI

Endigina besh yoshni qarshilagan Kamronbek ko'chada aylanib yurib,
bir to'p bolalarning yig'ilishib turganini ko'rib, o'sha tomonga shoshildi.
Borsaki, bolalar kichkina kuchukchani o'rtaga olib, kaltaklashayotgan ekan.

– Uyalmaysizlarmi? Kuchingizni shu mitti jonivorga ko'rsatasizlarmi?

– deb ro'molchasi bilan uning singan oyog'ini bog'ladi.

Shu payt bolalardan biri:

– Voy-voy! Juda aqlli bola ekansanmi, mittivoy? Qani,

itni joyiga qo'y! – dedi.

– Qo'ymayman, jonivorda nima ayb, agar sizni ham

birov shunday tepkilasa yaxshimi? – dedi Kamron.

Bundan jahli chiqqan haligi bola Kamronni turtib

yerga yiqitdi.

Buni ko'rgan bolalardan yana biri sherigiga qarab:

– Shoshma, biz sening kuching

ko'pligini ko'rmoqchi edik, ammo

jonivorga ozor berib, yosh bolani

yiqitishingni emas. Shu yosh bola

sendan aqliroq va rahmdil ekan. Agar

biz ham senga qo'shilsak, xuddi sen

kabi shafqatsiz bo'lib qolamiz, lekin

biz buni xohlamaymiz, – dedi.

Bu to'g'ri qarordan Kamron ham

xursand bo'lib kuchukchani uyiga olib

ketdi.

Shahnoza MUHAMMEDOVA



Bir bor ekan, bir yo'q ekan.
Shunday zamonlar bo'lgan ekanki,
burgutlar va lochinlar xo'rozdan
cho'chishgan ekan. Uning
qizil tojini juda xatarli deb
o'ylasharkan. Bir kuni ular
bunga aniqlik kiritish
uchun yosh
burgutga
topshiriq
berishibdi.
Kenja burgut
elchi sifatida
yerga qo'nibdi va
xo'rozning oldiga boribdi.
U o'z oilasi bilan atrofini aylanib
yurgan ekan. Xo'rozga yaqin kelib
debdi:

– Burgutlar shohi siz bilan
do'stlashmoqchi, lekin hammamiz
tojingizdan qo'rqamiz.

Bu gapni eshitgan xo'roz kulib
debdi:

– Mening tojim hayvonlarning
shoxiga o'xshab qattiq emas. U
juda ham yumshoq. Ishonmasang
ushlab ko'r, keyin hech qachon
qo'rqmaydigan bo'lasan.

Kenja burgut
avvaliga rosa
cho'chibdi. Ammo
xo'roz qayta-qayta
aytganidan keyin
uni ushlab ko'ribdi.
Hamma narsadan
xabardor bo'lgan burgut tog' sari
ko'tarilibdi. Uning ko'zlari

maysalar
orasida
o'y n a b

(Ertak) yurgan jo'jalarga
tushibdi. Endi xo'roz-

dan zarracha ham qo'rqmaydigan
burgut jo'jalarning bir nechtasini
changaliga olib sheriklari tomon
uchibdi. Burgutlar va lochinlar
qoshiga kelgach maqtangancha
debdi:

– Ko'rib qo'yinglar, men
xo'rozning palaponlarini olib
kelayapman.

O'z aybini bilgan xo'roz qilib
qo'ygan ishidan pushaymon
bo'libdi.

**Fors tilidan Bahriddin
TURG'UNOV tarjimasida**



XO'ROZ

SALMOQLI NATIJALAR



Janubiy Koreyaning Incheon shahrida XVII yozgi Osiyo o'yinlari nihoyasiga yetdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zolari ushbu musobaqalarda sportning 31 turida ishtirok etib, 44 medal, ya'ni 9 oltin, 14 kumush va 21 bronza medalni qo'lga kiritdi.

Jamoaviy bahslar hisobga olinganda mamlakatimiz sportchilari jami 61 medal (12 oltin, 14 kumush va 35 bronza)ga sazovor bo'ldi.

Osiyo o'yinlarida qit'aning 45 mamlakatidan 13 mingdan ziyod sportchi 36 sport turi bo'yicha 437 medallar jamlanmasi uchun o'zaro bahslashganini inobatga oladigan bo'lsak, yurtimiz sportchilari erishgan g'alaba juda salmoqli hamda quvonarlidir. Ayniqsa, musobaqa ishtirokchilari orasida Olimpiya o'yinlari, jahon va qit'a chempionatlarining g'olib va sovrindorlari ko'pchilik ekani bellashuvlarning keskin va murosasiz kechishini ta'minladi.

Osiyo o'yinlarida O'zbekistondan 228 sportchi boks, badiiy gimnastika, baydarka va kanoeda eshik eshish, dzyudo, og'ir va yengil atletika, erkin va yunon-rum kurashi, suzish, velosport va boshqa sport turlari bo'yicha mamlakatimiz sharafini himoya qildi. Ular o'zlarining yorqin chiqishlari va

erishgan yuksak natijalari bilan O'zbekistonda sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilayotganini yana bir bor namoyish etdi va Vatanimiz sha'ning butun dunyoda ulug'lanishiga hissa qo'shdi. Eng muhimi, O'zbekiston sportchilari hech kimdan hech qachon kam bo'lmagani va kam bo'lmashini yana bir bor isbotladi.

Osiyo o'yinlarida qo'lga kiritilgan medallarning katta qismi olimpiya sport turlari bilan shug'ullanadigan yoshlarimiz hissasiga to'g'ri keldi. Erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha Rustam Assakalov, Dilshodjon Turdiyev, Bekzod Abdurahmonov, Rashid Qurbonov va boshqa polvonlarimiz o'zbek kurash maktabining yuksak salohiyatini namoyish etib,

terma jamoamizga 3 oltin, 1 kumush va 3 bronza medalini keltirdi.

Mamlakatimizda ayollar sportini rivojlantirishga qaratilayotgan katta e'tibor samarasida bugun o'nlab sportchi qizlarimizni butun dunyo yaxshi biladi. Osiyo o'yinlarida ishtirok etgan sportchi qizlarimizning g'alabalari ham buni yana bir bor yaqqol isbotladi.

Gimnastikachi qizlarimiz Anastasiya Serdyukova, Jamila Rahmatova, Valeriya Davidova va Ravilya Farxutdinova yuqori tayyorgarlik va g'alabaga bo'lgan katta ishtiyoqni

namoyish etdi. Ularning halqa, to'p, bulava, lenta bilan murakkab mashqlarni bajarishi muxlis-u mutaxassislar olqishiga sazovor bo'ldi. Musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rgan sportchilarimiz jamoaviy bahslarda Janubiy Koreya, Xitoy Taypeyi, Xitoy, Yaponiya, Qozog'iston va boshqa davlatlar vakillarini dog'da qoldirib, mamlakatimizga navbatdagi oltin medallarni keltirdi.

Sportchilarimizning XVII yozgi Osiyo o'yinlarida erishgan yutuqlari mamlakatimizda sportni rivojlantirishga nechog'li ulkan e'tibor qaratilayotganini yana bir karra namoyish etdi.



MAYDONDANDA MAHALLA YOSHLARI

Poytaxtimizdagi «Jar» stadionida mahalla bolalar futbol jamoalari o'rtasida «Futbolimiz kelajagi» an'anaviy turnirining mamlakat bosqichi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston «Mahalla» xayriya jamoat fondi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari, Xalq ta'limi vazirligi, Kasaba uyushmalari, Futbol federatsiyasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, qator davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligida tashkil etilgan mazkur musobaqa bolalar sportini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan.

«Sog'lom bola yili» Davlat dasturida jismonan sog'lom, ma'nan yetuk avlodni shakllantirishda davlat va jamiyatimiz oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, bolalar, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish bo'yicha aniq choratadbirlar belgilangan. Ularning ijrosini

ta'minlash borasida «Mahalla» xayriya jamoat fondi tomonidan ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahalla yoshlari o'rtasida tashkil etilayotgan «Mahallamiz pahlavonlari», «Futbolimiz kelajagi», oilaviy sport jamoalari o'rtasidagi «Otam, onam va men – sportchi oila» sport musobaqalari navqiron avlodning sportga qiziqishini kuchaytirish, ularning jismonan sog'lom, ruhan tetik bo'lib ulg'ayishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

«Futbolimiz kelajagi» an'anaviy turniri mahalla yoshlarining bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida futbolni yanada ommalashtirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilayotir. Bu galgi musobaqaning quyi bosqichlarida bir milliondan ziyod bola ishtirok etgani e'tiborga molik. Turnirning final uchrashuvlari uch yosh toifasida – 9-10, 11-12 va 13-14 yoshli o'g'il bolalardan iborat jamoalar o'rtasida bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizning barcha hududlaridan futbol jamoalari g'oliblik uchun bahslashdi.

9-10 yoshli bolalar o'rtasida Bag'dod tumanidagi Samarqand mahallasi jamoasi birinchi, Buxoro shahridagi Ashfor mahallasi jamoasi ikkinchi, Jomboy tumani, Alisher Navoiy nomidagi mahalla jamoasi uchinchi o'rinni

egalladi.

11-12 yoshlilar o'rtasidagi bahslarda To'rtko'l tumanidagi Markazobod mahallasi jamoasi bosh sovrinni qo'lga kiritdi. Pastdarg'om tumanidagi Sinchi mahallasi jamoasiga ikkinchi, Jizzax tumanidagi Ziyok mahallasi jamoasiga uchinchi o'rin nasib etdi.

13-14 yoshli futbolchilar o'rtasidagi uchrashuvlarda g'oliblikka Sariosiyo tumanidagi Gulobod mahallasi jamoasi sazovor bo'ldi. Jizzax tumanidagi Qatortol mahallasi jamoasi ikkinchi, Namangan shahridagi Umid mahallasi jamoasi esa uchinchi o'ringa munosib ko'rildi.

Mahallamizda yoshlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha zarur sharoit yaratib berilgan, – deydi Sariosiyo tumanidagi Gulobod mahalla fuqarolar yig'ini raisi Avazmurod Muhammedov. – An'anaviy «Futbolimiz kelajagi» turnirining final bosqichida qo'lga kiritilgan g'alaba yosh futbolchilarimizning tinimsiz mashqlari mevasidir. Kelgusida ular safidan mamlakatimiz sharafini himoya qilishga qodir sportchilar yetishib chiqishiga ishonamiz. Turnirning g'olib va sovrindorlariga tashkilotchilarning kubok, medal, diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Sahifani internet materiallari asosida Jamshid KAMOL va Shoh MUHAMMAD tayyorlashdi



Maktabdan quvonib qaytgan Munisa ayvonda ko'rpacha qavib o'tirgan buvisiga mehr bilan salom berdi. Nabirasining quvnoq kayfiyatini sezgan buvisi alik olgach, so'radi:

- Ha, qizim, maktabga yaxshi borib keldingmi?

- Voy buvijon, bugun to'rtta fandan besh baho oldim. «Tong yulduzi» gazetasida berilyotgan ingliz tili saboqlarini ham yaxshi o'zlashtirib javob bergan edim, o'qituvchimiz meni maqtadilar.

- O'rgilay o'zimning a'lochi qizimdan. Kundalik daftaringdagi a'lo baholaring yanada ko'payibdi-da, barakalla. Hozir kiyimlaringni almashtir, qo'llaringni yuv. Sen yaxshi ko'radigan qiymali mastava tayyorlab qo'yganman. O'vqatlanib bo'lgach, pochtaxonaga chiqib kelamiz.

Hafiza buvi nabirasi bilan

QUVONCH

pochtaga kirib kelishganida odamlar gavjum edi. Ayni obuna mavsumi emasmi, pochta xodimlarining ishlari ko'paygan.

Nafaqa pulini olgan buvi Munisani sevimli nashri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasiga bir yil uchun obuna qildirib qo'ydi. Negaki, nabirasining maktabda fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirayotganiga ushbu nashrning ahamiyati katta ekanligini yaxshi tushungan edi.

Bundan quvongan Munisa:
- Buvijon, sizga katta rahmat! Dugonalaringa aytib maqtanadigan bo'ldim, - deya buvisini quchoqlab oldi.




TAHRIRIYATDAN:

Siz-chi, aziz o'quvchilar, «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldingizmi? Fursatni boy bermay, shoshiling, obuna davom etmoqda!

BONU tayyorladi

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!



Bolajonlar, harflarni tartib bilan birlashtirib o'qing va kataklarga yozing. Shunda ibratli maqolni bilib olasiz.

Iqbol MALIKOVA tayyorladi

Gazetamizning 40-sonida berilgan

«SO'LIM DIYOR» AYLANMA KROSSVORDning javoblari:

1. Farg'ona. 2. Mo'minova. 3. Ittifoq. 4. Axsikent. 5. Oyririm. 6. Ko'ksaroy. 7. Chustsoy. 8. Uchqo'rg'on. 9. Sharipov. 10. «Navbahor».

MUAMMONOMA

- Kalit so'zlar: 1. Ahmedov. 2. «Nestle». 3. Pilla. 4. G'isht.
Sport inshootlari: «Sog'lom avlod», «Pahlavon», «Alpomish».

Tennis birinchiligi: «Satellit».

8

13-oktabr 2014



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV, Abduq'ani XOLBEKOV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Sobitxon TURG'UNOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruza JALILOVA, Sa'dullo TURSIYOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruz MATYUQBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nurbek QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek KAMOL o'gli

Manziliimiz:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 30226 Buyurtma - S 1110

RANGLARDAN ILHOMLANIB...



Poytaxtimizning Bektimir tumanidagi 290-umumta'lim maktabining 4-«V» sinf o'quvchisi, Sadridin Jalolov bizga bir qancha chizgan rasmlaridan yuboribdi. Mazkur ijod namunalari go'zal kuzning tarovati, so'lim tabiatning xushmanzarasi yaqqol sezilib turibdi.



Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Umid Abduhoshimova tirishqoqligi, mehnatsevarligi bilan sinfdoshlaridan ajralib turadi, bo'sh vaqtini behuda sarflamaydi. Doimo uning qo'lidan kitob tushmaydi. Rasm chizish Umidaning eng sevimli mashg'uloti. Tengdoshlaringizning ijodini kuzatar ekanmiz, osmono'par tog'lar-u xushmanzara chamanzorlarni chizganlarida borliq go'zalligidan o'zlari ham zavq olishlariga amin bo'ldik.



MANZURA

MAZALI BATON

peyzanda qizga!

Kerakli masalliq: 150 gr. eritilgan pishloq, 100 gramm dudlangan kolbasa, 1 ta uzun baton noni, 2 ta bodring, 1 ta pomidor, yarim bog' shivit, 1 osh qoshiq mayonez, tuz.

Tayyorlanishi: Baton nonining uch qismidan kesib, qalpoqcha yasaladi. Ingichka pichoq yordamida ichidagi ushloqlari asta-sekin chiqarib olinadi. So'ngra kolbasa, pomidor, bodring mayda to'rtburchak shaklida to'g'raladi, unga ko'kat, pishloq, nonning ushloqi va mayonez aralashtiriladi-da, tuzi roslanadi.

O'yilgan batonning ichi to'ldirilgach, qalpoqchasi yopiladi va yelim xalta kiydirilib, 20 daqiqa muzlatgichga qo'yiladi. Muzlatgichdan olgach, uni parrak-parrak qilib bo'laklarga kesiladi va likopchaga solinadi.

Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

